

ALISHER NAVOIY OBRAZINING BADIY IFODASI

*Umarova Intizor Abdumalik qizi,
O'zbekistob Samarqand Davlat Universiteti,
filologiya fakulteti 1- kirs magistri,
Ilmiy rahbar: prof A.N.Nasirov*

АЛИШЕР НАВОИ В ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗА

Дочь Умаровой Интизор Абдумалик,
Самаркандский государственный университет Узбекистана,
магистр 1 курса филологического факультета,
Научный руководитель: профессор Насиров А.Н.

Аннотация

В статье рассматривается художественная интерпретация образа Мир Алишера Навои, мыслителя своего времени, талантливого писателя, просвещенного творца в романе «Алишер Навои» талантливого писателя Исаджона Султана. Также показано, что проблемы периода, конфликты в социальной среде, обосновавшие попытку описания художественного образа Алишера Навои с опорой на историческую действительность, были тщательно осмыслены в рамках одного романа.

Ключевые слова: историчность, художественность, концепты, среда, взгляды, интерпретации, творчество, образность.

ALISHER NAVOI IN ARTISTIC EXPRESSION OF THE IMAGE

Daughter of Umarova Intizor Abdumalik,
Samarkand State University of Uzbekistan,
Master of the 1st year of the Faculty of Philology,
Scientific leader: Prof. A.N. Nasirov

Annotation

The article reacts to the concept of the artistic interpretation of the image of Mir Alisher Navoi, a thinker of his time, a talented writer, an enlightened creator in the novel "Alisher Navoi" by the talented writer Isajon Sultan. Also, it is shown that the problems of the era, conflicts in the social environment, which justified the attempt to portray Alisher Navoi's artistic image based on the historical reality, were carefully interpreted within the framework of one novel.

Key words: historicity, artistry, concepts, environment, views, interpretations, creativity, imagery.

O‘zbek adabiyotining etuk namoyondasi, jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘sghan buyuk siymolar tarix sahifalaridan o‘rin olib kelmoqda. Ana shunday ijodkorlardan biri, Sharq madaniyati, adabiyotiga ulkan hissa qo‘sghan Mir Alisher Navoiydi. Adib ijodiga nazar tashlar ekanmiz, unda insonni ulug‘lash, uning ruhiy-ma’naviy go‘zalligiga urg‘u berish bilan bir qatorda iniy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalshga diqqat qaratganligini guvohi bo‘lamiz. Mir Alisher Navoiy ijodini, uning shaxs sifatidagi faoliyatiga qiziqish o‘z davridanoq boshlangan. Buning zamirida nafaqat buyuk iste’dod sohibi sifatidagi faoliyati, shu bilan bir qatorda tarix zarvaraqlaridagi hayoti ham juda katta qiziqish uyg‘otgan. Uninmg badiiy siy whole="1" mosini yaratishga ham shunday ehtiyoj mavjud ediki, bu esa o‘tgan asrning boshlarida yanada jiddiyroq nazar tashlash imkonini berdi. Tariximizni, tarix sahifalaridagi buyuk siymolar obrazini badiiy talqin etish an’anasi taraqqiy etib keldiki, bu esa tarixiy siymolar haqidagi tarixiy romanlarni yuksalishini

ta'minlashga xizmat qildi. Iste'dodli adib Musa Toshmuhammad o'g'li Oybek, Mirkarim Osim, Omon Muxtor kabi ijodkorlar Alisher Navoiyning epik xarakterini badiiy talqin etishga jazm qildi. Bu esa keyinchalik turli mulohazalarga sabab bo'lsa-da, Oybekdek sovz san'atkori o'tgan asrning o'rtalaridayoq, uning haqiqiy saymosini yarata olganligini alohida qayd etish lozim. Adabiyotshunos A.Nasiropv qayd etganidek: "Tarix voqelogini badiiy talqin etish ijodkordan katta badiiy mahoratni talab etadi" [1, 14-bet]. Ta'kidlanganidek, roman hayotni, tarixiy yoki zamonaviy borliqni keng qamrovda epik planda talqin etadi [2, 495-bet]. Tarixiy romanda tarixiy shaxs qismati, ruhiy-ma'naviy olamining badiiy talqini, ijodkor badiiy mahorati orqali o'z ifodasini topa boshladi [3,209-bet] Haqiqatan ham o'zbek tarixiy romanlarining taraqqiyoti haqidagi bunday qarashlarda asoslar mavjud, o'tgan davr mobaynida janr taraqqiyoti turfa xil ohanglarni, badiiy-estetik tamoyillarni yuzaga chiqardi. Bu o'z navbatida, ilk tarixiy romanchilikda ilgari surilgan tasvir usullarining o'ziga xosligi bilan bir qatorda, etuk so'z san'atkori Abdulla Qodiriydek ulkan adib janrning poetik xususiyatlarini juda teran anglaganligi, ijodida bu usulni namoyon eta olganligi bilan izohlash zarur: "Lekin tarixiy sharoit, uning natijasi bo'lgan ma'lum bir voqealar uning gumanistik g'oyalarini yuzaga chiqarishga imkon bermagan" [1, 15-bet]. Roman uchun asos qilib olingan tarix voqeligining badiiy ifodasi, mavjud xalq og'zaki ijodi, mumtoz va jahon adabiy an'analaridan oziqlanishi ham poetik mukammallik kasb etishiga imkon yaratgan. Yillar davomida adabiy-tanqidiy qarashlarning asosiy manbai bo'lib kelishini bu janrning ilk namunasi, etuk asar sifatidagi poetik talqinlarning o'ziga xosliklari bilan izohlash mumkin.

Insonning ijtimoiy muhitga ta'siri, bu muhitda xarakterning shakllanishi, o'ziga xos makon va zamonda harakat etishi, jamiyat va shaxsning birligi ham yanada asosliroq talqinlarni shakllantirdi. Shuning uchun ma'lum bir davr badiiy ijod jarayonidagi kompozitsion talablarni, mezon va imkoniyatlarni yuzaga chiqardi, bu esa tarixiy romanlarning poetik xususiyatini tahlil qilish imkonini kengaytirdi.

Keyingi yillardagi fan-texnika taraqqiyoti inson tafakkurining ham keskin o‘zgarishiga olib kelmoqda. Natijada badiiy adabiyotga, xususan, tarixiy romanga qahramon ruhiy-ma’naviy olamidagi kechinmalar, ziddiyatlarning mahsuli bo‘lgan sabab-oqibat natijalarini anglashga intilish, undan o‘ziga xos muayyan saboqlar chiqarib olish maqsadida tahliliy yondashilmoqda.

Tarixiy romanning asosiy vazifalaridan biri, o‘tmishda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni, buyuk shaxslarning badiiy siymosini aks ettirish, ularning tarix va insoniyat uchun eng muhim qirralarini, xarakter xususiyatlarini badiiy talqin etish, davr va inson, shaxs va muhit kabi tushunchalarni badiiylashtirib, o‘quvchini uzoq tarix bilan hamnafas bo‘lishiga imkon yaratishdan iborat [4,181-bet].

Iste’dodli adib Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” tarixiy romanidagi obrazlar olami kitobxon qalbini larzaga soladi. Hayot haqiqatining turli qirralarini badiiy inkishof etish jarayonida tarixiy shaxslar qismatini, uning badiiy olamini, davr haqiqatidan kelib chiqib talqin etgan. Chunki tarix haqiqatini badiiylashtirish ijodkordan katta badiiy mahorat bilan bir qatorda, tarix haqiqatini, tarixiy shaxslar olamini, uning ruhiy-ma’naviy istiroblarini teran anglashni talab etadi.

Tarixiy romanda Alisher Navoiyning badiiy olami, uning insoniy fazilatlari mahorat bilan talqin etilganligini kuzatish mumkin. Isajon Sulton bu romanidagi bir qator obrazlarni masalan: Mir Alisher Navoiy, Husayn Bayqaro, Xadichabegim, Badiuzzamon kabi obrazlarining turli xislatlarini mahorat bilan talqin etgan. Asardagi har bir voqelik, uning turfa olamlari davr haqiqatidan kelib chiqib tahlil va talqin etish imkonini kengaytirgan. Tarixni badiiy talqin etar ekan, davr muammolarini, ijtimoiy hayotning keskinlashishi, shohu shohzodalarining o‘zaro kurashlarini avj olishi, bunda istirob chekayotgan xalqning oxir hayoti o‘z ifodasini topgan: “Sultonlar qaysi bekning kimga xizmat qilganligini yaxshi bilishar, saltanat o‘zgargach, unga martaba yoxud vazifa tayin etishar yoki saltanatdan chetlatib, hibsga yoki qtnga yuborardilar. Shukurki, Abusayid Mirzo ushbu mulklarda paydo bo‘lgan uchinchi bir qudrat – Abulqosim Mirzo xizmatida bo‘lgan beklarga shafqat

qildi. G‘iyosiddinbek oilasi bir-biriga yovlashgan uch qudrat girdobida ichida qoldi” [5, 114-bet].

Darhaqiqat, tarixga nazar tashlar ekanmiz, eng murakkab bir davrda Alisher Navoiylar oilasi Hirotni tark etishga majbur bo‘lganligini, hali bolalikning bexubor oniy lazalarini unita olmagan yosh Alisherning Ali yazdiy bilan uchrashuvlari bejiz emas edi. Ana shunday talqinlar asosida Alisher Navoiy obrazini o‘ziga xos xarakter qirralarini badiiy talqin etishga harakat qiladiki, bu esa adibning tarix haqiqatiga hamohang obrazlar galeriyasini badiiylashtirganligidan dalolatdir.

Adabiyotlar:

- 1.Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. Monografiya. – Turkiya, Istanbul, -KESIT, 2019. – B. 139.
2. Nasirov A. Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov’s novels // Academicia: An Internatioonal multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF 2020: 7.13. Str. 498-501.
- 3.Nasirov A. Ard conflict in the novel “Rebellion and obedience” by Ukugbek Hamdam // Science, Research, Development // 32. // 2. Berlin 30.08. 2020 – 31. 08. “Diomond trading tour”. 2020. ISBN: 978-66401-65-5. 208-211 – str.
- 4.Nasirov A. Expression of spiritual expreriences in art // International Jurnal on Integrated Education // Volume 3, Issue XI, November 2020. Impact Faktor 2020: 7.03. 181-182 str.
- 5.Sulton Isajon. Alisher Navoiy. Roman. – Toshkent, 2021. –512 bet.